

## XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNI TAYYORLASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

F.J.Ro'ziyev

MTTDMQTMOI, Ilmiy pedagogik  
faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi  
boshlig'i, p.f.f.d (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarning o'z-o'zini rivojlantirish uchun kasbiy kompetentligini shakllantirishda xalqaro tajribalarni o'rganish natijalariga ko'ra ta'limning xalqaro standart tasniflagichi asosida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashning didaktik imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi, ta'lim dasturlari, bo'lajak tarbiyachi, ta'lim natijalari (Learning Outcomes), mehnat bozori, ta'lim sifati, mexanizmlar.

**Аннотация:** В статье рассматриваются дидактические возможности подготовки будущих педагогов на основе международного стандартного классификатора образования, основанные на результатах изучения зарубежного опыта формирования профессиональной компетентности для саморазвития будущих педагогов.

**Ключевые слова:** Международная стандартная классификация образования, учебные программы, будущие педагоги, результаты обучения, рынок труда, качество образования, механизмы.

**Abstract:** The article examines the didactic possibilities of training future teachers based on the international standard classifier of education, based on the results of studying foreign experience in the formation of professional competence for self-development of future teachers.

**Keywords:** International Standard Classification of Education, curricula, future teachers, learning outcomes, labor market, education quality, mechanisms.

Mamlakatimizda mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalarini hisobga olgan holda ish beruvchi tashkilotlar talablarining ta'lim dasturlari mazmuni bilan o'zaro bog'liqligini kuchaytirish ustivor vazifa sifatida qaralmoqda. Oliy ta'lim mazmuni sifat va samaradorlikni ta'minlashning pedagogik nazariyalari nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda yetakchi tadqiqot institutlari va xalqaro ta'lim tizimini joriy qilish markazlari tomonidan chuqur tadqiq qilinmoqda. Bugungi kunda xalqaro va ichki mehnat bozori talablari, integratsion jarayonlarning jadallashuvi, raqamlashtirish, sanoatdagi texnologik jadallashish zamon talablariga mos ko'nikma va malakalarga ega mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. Ta'limning xalqaro standart tasniflagichiga mos keluvchi ta'lim dasturlarini yaratish jarayonida "Ta'lim natijalari" (Learning outcomes) ga tayangan holda bo'lishi maqsadga muvofiq, chunki mehnat bozori sharoitida bo'lajak tarbiyachilarni baholashdagi asosiy mezon ularning kasbiy kompetentligi bo'lib, ularning raqobatbardoshligi va professional mobilligi aynan shunga bog'liqdir. Rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim standartlarining talablari ta'lim mazmunining minimum talablarini emas, balki kompetensiyalar bilan ifodalangan talablarni asosiy ta'lim dasturlari ta'lim natijalari (Learning Outcomes)ning tarkibi (bilish, bajara olish, egallash) va qanday erishish kerakligini aniq tushunib olish talab etiladi.

Yevropaning bir qator mamlakatlarida olib borilgan qiyosiy tadqiqot natijalari ta'lim natijalari (Learning Outcomes) va o'quv rejalari va oliy ta'lim sohasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. "Ta'lim natijalari (Learning Outcomes)" tushunchasi faqat ta'lim va tarbiya bilan cheklanib qolmasdan, uning milliy va Yevropadagi oliy ta'lim siyosatida hamda o'quv dasturlari mazmunini modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy munozaralarda dolzarbligicha qolmoqda. Bunga ko'ra, "Ta'lim natijalari (Learning Outcomes)" – "talab bilgan narsalar haqidagi bayonotlar, o'quv jarayonini tugatgandan so'ng tushunadi va qila oladi" - bu asosiy jihat shaffoflikni qo'llab-quvvatlaydigan ta'lim vositalarini turli darajalarda loyihalashtirish konsepsiyasi, taqqoslanuvchanlik, o'tkazuvchanlik va malakalarning turli xilligini tan olishni nazarda tutadi.

O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15-maydagi "O'zbekiston respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari" to'g'risidagi 287-sonli qarori bilan quyidagilar belgilab berildi: Milliy malaka ramkasi, kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi to'g'risidagi nizom, kasbiy malakalarni rivojlantirish respublika kengashi to'g'risidagi nizom, kasbiy bilim hamda ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari haqidagi nizom, tarmoqlar malaka ramkalarini shakllantirish va amaliyotga joriy etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar, kasb standartlarini shakllantirish va amaliyotga joriy etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar, kompetensiyalarni baholash bo'yicha faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar registri, kasb standartlari milliy registri, tasdiqlangan malakaga ega shaxslar milliy reestri kabilar. Shu nuqtai nazardan, mehnat bozorida o'zgarishlar oliy ta'lim tizimi mazmunida talabalarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishi kerak. Ular birinchi navbatda hayotiy vaziyatlarga moslashishlari va muayyan kasbiy malakalarga ega bo'lishlari talab etiladi. Aynan shunday pedagogik prognostika natijasida oliy ta'lim tizimi mazmunini fan-texnika taraqqiyoti xalqaro va mehnat bozori talablari asosida belgilash muhim ahamiyatga ega. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-shaxsiy, kasbiy-ta'limiy ehtiyojlarni hisobga olish, iqtisodiyotning liberallashtirilishi va diversifikatsiya qilinishi, globallashtirish, tashqi bozorga kirish, raqamlashtirish, sanoatlashuv jarayonlarining shiddati har bir soha uchun raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni, mehnat munosabatlarining bozor iqtisodiyoti qonunlariga moslashtirilishi, migratsiya va tashqi mehnat bozorlarining ochilishi, talabalarda kelajak ko'nikmalar deb nomlanayotgan tanqidiy fikrlash, kreativlik va jamoada ishlash kabi kasbiy malakalarni shakllantirish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xalqaro tajribalarni o'rganish natijalariga ko'ra xalqaro standartlar asosida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashning didaktik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

-ta'lim tizimining uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash maqsadida turli bosqichlarda o'qitiladigan va o'rganiladigan bilim va ko'nikmalar ketma-ketligini aniqlashtirish;

-“Hayot davomida ta'lim” strategiyasi doirasida bo'lajak tarbiyachilarning ta'lim traektoriyasini ongli va mustaqil tanlashga imkon yaratish;

-bo'lajak tarbiyachilarning tez o'zgarib turadigan mehnat bozoriga moslashish qobiliyatini oshirish;

-bo'lajak tarbiyachilarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

-bo'lajak tarbiyachilarning o'z-o'zini rivojlantirish uchun kasbiy motivatsiyasini shakllantirish, bu esa hayotda muvaffaqiyat qozonishiga imkon yaratadi;

-bo'lajak tarbiyachilarning mehnat bozori talablariga mos o'zgaruvchanligini ta'minlash choralari ko'rish;

-ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlarini xalqaro standartlarga moslashtirish;

-bo'lajak tarbiyachilarga ish beruvchilarga malaka va sifatni ta'minlash mexanizmlarini tavsiflashning barcha mezonlariga mos va tushunarli bo'lgan yagona formatini ishlab chiqish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-73-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31. 12.2020 yildagi PQ-4939 sonli "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
3. С.Гафитулин. Модель перспективного образования. 2017г .